Axmedov.A.Yu.
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
Muhammadjonova.Z.Sh.
FarDU Pedagogika yo‘nalishi talabasi.

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING KASBIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: Hozirgi kunda ta’lim tizimida inklyuzivlik tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta’lim barcha o‘quvchilarning, shu jumladan imkoniyati cheklangan bolalarning ham ta’lim jarayoniga to‘laqonli jalb qilinishini ta’minlaydi. Bunday sharoitda pedagogdan nafaqat yuqori kasbiy tayyorgarlik, balki kommunikativ kompetentlikning rivojlangan bo‘lishi ham talab etiladi.Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish masalasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Inklyuziv ta’lim, pedagogik mahorat, kasbiy mahorat, kommunikativ kompetentlik, pedagogik muloqot, kasbiy-pedagogik tayyorgarlik, empatiya, tolerantlik, pedagogik madaniyat, interaktiv seminar, empatiya mashqlari, kooperativ o‘qitish, refleksiv tahlil.

Аннотация: В современном образовательном процессе принцип инклюзивности приобретает приоритетное значение. Инклюзивное образование обеспечивает полноценное вовлечение всех учащихся, включая детей с ограниченными возможностями, в учебный процесс. В таких условиях от педагога требуется не только высокий уровень профессиональной подготовки, но и развитая коммуникативная компетентность..В данной статье освещается вопрос формирования коммуникативной компетентности будущих педагогов в условиях инклюзивного образования.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, педагогическое мастерство, профессиональное мастерство, коммуникативная компетентность, педагогическое общение, профессионально-педагогическая подготовка, эмпатия, толерантность, педагогическая культура, интерактивный семинар, упражнения на развитие эмпатии, кооперативное обучение, рефлексивный анализ.

Abstract: Nowadays, the principle of inclusivity holds a prominent place in the education system. Inclusive education ensures the full participation of all students, including children with disabilities, in the learning process. In such a context, a teacher is expected to possess not only high professional qualifications but also well-developed communicative competence. This article explores the issue of developing communicative competence in future educators within the

framework of inclusive education.

Keywords: Inclusive education, pedagogical skill, professional competence, communicative competence, pedagogical communication, professional-pedagogical training, empathy, tolerance, pedagogical culture, interactive seminar, empathy exercises, cooperative learning, reflective analysis.

Zamonaviy ta’lim tizimida inklyuzivlik tamoyili asosiy qadriyatlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Inklyuziv ta’lim barcha bolalarning, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarning ham bilim olish huquqini ta’minlaydi. Bunday ta’lim muhitida faoliyat yurituvchi pedagogdan yuqori kasbiy madaniyat, muloqot mahorati va empatik yondashuv talab etiladi**.**

Bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish — bu faqat nutq madaniyatini o‘rgatish emas, balki shaxsiy qadriyatlar, insoniy munosabatlar va bag‘rikenglikni shakllantirish jarayonidir. Shu sababli, pedagogika oliygohlarida bu kompetensiyani rivojlantirishning kasbiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Ta’lim tizimida Inklyuziv ta’lim sharoitida bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning kasbiy-pedagogik asoslari ko‘plab olimlar (F.U.Qodirova, D.A.Pulatova, S.Mo‘minov, Sh.Axmedova, G.Alimova, N.V.Borisova, S.A.Prushinskiy, S.V.Alexina) tomonidan o‘rganilgan:

“Inklyuziya”, “inklyuziv ta’lim” atamalari keng qo‘llanishiga qaramasdan, ushbu tushunchalarning mohiyatini aniqlash masalasi hozirgacha bahsli bo‘lib qolmoqda, bu bizning fikrimizcha, tadqiqotchilarning ushbu fenomenga har turli metodologik yondashuvlari bilan bog‘liq. Ta’lim sohasida inklyuziv yondashuvning evolyusiyasi jamiyatning nogironlik to‘g‘risidagi tushunchasi o‘zgarishiga asoslangan edi: XX asrning 1960-yillari o‘rtasigacha mavjud bo‘lgan salomatlik imkoniyati cheklangan odamlarni ajratib qo‘yishni nazarda tutuvchi tibbiy model o‘rniga XX asrning 1980-yillari o‘rtasigacha davom etgannormallashtirish modeli keldi. Bu model salomatlik imkoniyati cheklangan odamlarni jamiyatga integratsiyalashni nazarda tutar edi. Hozirgi vaqtda salomatlik imkoniyati cheklangan bola ta’limidagi to‘siqlar va muammolar jamiyat ta’lim tizimining atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabatlari nomukammalligini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy modelga o‘tish tendensiyasi kuzatilmoqda [1]

Inklyuziv ta’limning maqsadi - alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli ta’lim berishni ta’minlashdan iborat[2]

Inklyuziv ta’lim – o‘quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o‘zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta’lim jarayonidir[3]

Inklyuziv ta’lim - bu umumta’lim (ommaviy) maktablarda sog‘lom o‘quvchilar bilan alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni birga uyg‘unlashgan tarzda o‘qitish jarayonidir. Inklyuziv ta’lim bolalarga nisbatan har qanday kamsitishni istisno qiluvchi, barchaga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlovchi, hamda alohida ta’limga ehtiyojli bolalar uchun alohida shart-sharoitlar

yaratuvchi ta’limdir.[4]

N.V.Borisova, S.A.Prushinskiy ta’kidlaydilarki, inklyuziv ta’lim tayanadigan ijtimoiy modelga ko‘ra, “nogironlikning sababi faqat kasallikning o‘zida emas, balki jamiyatdagi mavjud jismoniy (ijtimoiy tuzilmalar va tartiblarga doir) va tashkiliy (munosabatlarga doir) to‘siqlar, stereotiplar va noto‘g‘ri qarashlardir[5].S.V.Alexinaning fikricha esa, “inklyuziya - ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlashtirish va imkoniyati cheklangan shaxslarning birgalikda sifatli ta’lim olishga huquqlarini tan olish maqsadlarini tushunishning bir xil ma’noda bo‘lishini nazarda tutuvchi ijtimoiy konsepsiya” hisoblanadi.[6]

Kommunikativ kompetentlik — bu pedagogning o‘quvchi, ota-ona, hamkasb va jamiyat bilan samarali muloqot o‘rnatish, fikrni aniq ifodalash, emotsional barqarorlikni saqlash va shaxslararo muvozanatni boshqarish qobiliyatidir. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- ☑ Nutqiy kompetensiya – fikrni to‘g‘ri, aniq, madaniyatli ifoda etish;
- ☑ Ijtimoiy kompetensiya – muloqotda hurmat, hamkorlik va tinglash madaniyati;
- ☑ Emosional kompetensiya – empatiya va sabr-toqatni rivojlantirish;
- ☑ Refleksiv kompetensiya – o‘z nutq faoliyatini tahlil qila olish ko‘nikmasi.

Bu sifatlar inklyuziv ta’limda ayniqsa muhim, chunki har bir bola bilan individual aloqa o‘rnatish, ularning hissiyotlarini tushunish va ruhiy qo‘llab-quvvatlash pedagogik muloqotning markazida turadi.

Inklyuziv ta’lim muhitida pedagog quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ☑ turli ehtiyojdagi bolalar bilan samarali aloqa o‘rnatish;
- ☑ o‘quvchilarda o‘ziga ishonch va ijobiy motivatsiyani uyg‘otish;
- ☑ jamoada hamkorlik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish;
- ☑ ota-onalar bilan doimiy ijtimoiy-pedagogik muloqot olib borish.

Shuning uchun kommunikativ kompetentlik inklyuziv ta’limda moslashtiruvchi, tarbiyaviy, muvofiqlashtiruvchi va motivatsion funksiyalarni bajaradi. U pedagog shaxsining kasbiy muvaffaqiyati uchun asosiy omil hisoblanadi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish — bu nafaqat muloqot madaniyatini o‘rgatish, balki shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy tayyorgarlikni bir butun holda shakllantirish jarayonidir. Mazkur kompetensiya o‘qituvchining professional qiyofasini belgilovchi asosiy mezonlardan biri bo‘lib, u inklyuziv muhitda muvaffaqiyatli pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur shartdir.

Inklyuziv ta’limda har bir bola o‘z imkoniyatlari darajasida ta’lim jarayonida ishtirok etadi. Shu bois, bo‘lajak pedagoglardan o‘quvchi shaxsini chuqur tushunish, unga hurmat va bag‘rikenglik bilan yondashish, turli ehtiyoj va temperamentdagi bolalar bilan ijobiy muloqot o‘rnatish qobiliyati talab etiladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish jarayonida quyidagi yo‘nalishlar eng samarali hisoblanadi:

- ☑ Pedagogik treninglar orqali empatiya, faol tinglash va hissiy barqarorlikni shakllantirish.
- ☑ Situatsion o‘yinlar va modellashtirish mashg‘ulotlari orqali real inklyuziv

vaziyatlarda muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlash.

☑ Refleksiya va tahlil mashqlari yordamida o‘z nutqi va xulq-atvorini baholash, o‘z ustida ishlash madaniyatini rivojlantirish.

☑ Kooperativ o‘qitish metodlari asosida talabalarni jamoada ishlashga, muammolarni birgalikda hal etishga o‘rgatish.

☑ Axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish orqali virtual muloqot, masofaviy ta’lim sharoitida ham samarali aloqa o‘rnatish ko‘nikmasini hosil qilish.

Bo‘lajak pedagoglarda kommunikativ kompetentlikning yetarli darajada shakllanmaganligi ko‘p hollarda nazariy bilimlarning amaliy tajriba bilan bog‘lanmaganligi, muloqot madaniyati mashg‘ulotlariga yetarli e’tibor berilmaganligi bilan izohlanadi. Shu sababli, oliy pedagogik ta’lim muassasalarida o‘quv rejalari va dasturlarni yangilash, ularni inklyuziv ta’lim talablariga moslashtirish, o‘qitish jarayoniga interaktiv usullarni keng joriy etish zarur.

Inklyuziv ta’limni amalga oshirayotgan o‘quv muassasalari uchun amaliy qo‘llanma sifatida xizmat qilishi mumkin. Unda ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda, ayniqsa kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda samarali yo‘nalish sifatida qo‘llanilishi mumkin. Mazkur yondashuv o‘qituvchilarning turli ehtiyojli o‘quvchilar bilan ishlashda to‘g‘ri kommunikatsiya o‘rnatish, ularning individual xususiyatlarini inobatga olish, hamda ijobiy psixologik muhit yaratish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish ularning kasbiy yetukligi, pedagogik mahorati va ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi. Pedagogik fanlar majmui orqali kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat nutqiy, balki hissiy-irodaviy jihatdan ham rivojlanishini ta’minlaydi. Tadqiqotda aniqlangan metodlar (dialogik yondashuv, interfaol mashg‘ulotlar, empatik tinglash) ularning muloqot madaniyatini yanada yuksaltirgan.

Inklyuziv ta’lim jarayonida pedagogning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish o‘quvchilarning psixologik iqlimini yaxshilash, tenglik va hamkorlik tamoyillarini mustahkamlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Pedagogik ta’lim tizimida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishga doir amaliy mashg‘ulotlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Shu sababli, o‘qituvchilar tayyorlov jarayonida muloqotga kirishish, konfliktsiz yechim topish va o‘z fikrini aniq ifodalash malakasini chuqurlashtiruvchi integrativ metodlardan kengroq foydalanish zarur.

Inklyuziv ta’lim sharoitida bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish bugungi ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Chunki bunday muhitda pedagog faqat bilim beruvchi emas, balki har bir bolaning ichki dunyosini anglay oluvchi, uni ijtimoiy hayotga moslashtiruvchi va ruhiy qo‘llab-quvvatlovchi shaxs bo‘lishi lozim.

Kasbiy-pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, kommunikativ kompetentlik:

☑ pedagogning muloqotga tayyorligi,

☑ emosional barqarorligi,

☑ axloqiy qadriyatlari va

☑ shaxslararo muvozanatni saqlash mahorati orqali namoyon bo‘ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash jarayonida pedagogika, psixologiya, nutq madaniyati, ijtimoiy pedagogika kabi fanlar integratsiyasiga asoslanish zarur. Bu yondashuv orqali ta’lim jarayoni nazariy bilimlardan amaliy muloqotga o‘tadi, har bir talaba o‘zini pedagogik shaxs sifatida anglay boshlaydi. Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish jarayonini faqat dars yoki leksiya shaklida emas, balki treninglar, interaktiv seminarlar, empatiya mashqlari, kooperativ o‘qitish va refleksiv tahlil kabi faol o‘qitish uslublari orqali tashkil etish yuqori natija beradi.Bundan tashqari, pedagogik oliygohlarda inklyuziv ta’lim madaniyatini targ‘ib etish, o‘qituvchi shaxsining psixologik tayyorgarligini mustahkamlash, empatik fikrlashni o‘stiruvchi mashg‘ulotlarni muntazam o‘tkazish lozim.

Natijada bo‘lajak pedagoglarda quyidagi sifatlar shakllanadi:

☑ ijtimoiy moslashuvchanlik va muloqotga ochiqlik;

☑ har bir o‘quvchining ehtiyojini inobatga olish qobiliyati;

☑ ziddiyatli vaziyatlarda sabr-toqat bilan yechim topish;

☑ o‘z nutqi va xatti-harakatini tahlil qila olish malakasi.

Shunday qilib, inklyuziv ta’lim sharoitida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning kasbiy-pedagogik asoslari deganda, shaxsga yo‘naltirilgan, insonparvarlik tamoyillariga tayanadigan, empatiya va bag‘rikenglikni rivojlantiruvchi, faol muloqot va hamkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik jarayon tushuniladi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’lim sharoitida bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish kasbiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. Darslik Chirchiq-2022. 23-24 b
2. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida Nizom. – Toshkent. “Vazirlar Maxkamasining 638-qarori ilovasi”, 2021
3. Pedagogik atamalar lug‘ati –Toshkent. “FAN”, 2008, 47-b
4. S.Mo‘minov, Sh.Axmedova, G.Alimova. Inklyuziv ta’limning barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish nomli metodik tavsiya. Toshkent, 2022, 18-b
5. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. Darslik Chirchiq-2022. 24-b
6. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. Darslik Chirchiq-2022. 24 b